

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI KENGASHINING
2021/2022 O‘QUV YILI 6- YIG‘ILISHI
БАӘНИ

2022-yil 31 yanvar
Katta yig‘inlar zali

Buxoro shahri
soat 10:00

Raislik qildi:

O.X.Xamidov - kengash raisi, Buxoro davlat universiteti rektori, p.f.d., prof.

Ishtirok etganlar:

N.G.Dilova - kengash kotibi, p.f.f.d.,(PhD) dots.
BuxDU kengashi a’zolari umumiy soni:74 nafar
Qatnashdi: 70 nafar kengash a’zosi va taklif qilinganlar (ro‘yxat asosida)

Buxoro davlat universiteti kengashining 2021-2022 o‘quv yilining 6-yig‘ilishini kengash raisi, universitet rektori, i.f.d., professor O.X. Xamidov ochib berdi.

Oliy Attestatsiya komissiyasi qarori bilan tasdiqlangan ilmiy unvon va ilmiy daraja olgan professor-o‘qituvchilar hamda turli tanlov g‘oliblari taqdirlandi.

RAIS: assalomu alaykum, hurmatli yig‘ilish qatnashchilari. Universitet Kengashida an’anaga aylangan faoliyati davomida yuqori natijalarni qo‘lga kiritgan va e’tirofga sazovor bo‘lgan professor o‘qituvchilarimizni taqdirlashga ijozat bersangiz.

1. Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrasida dotsenti **Ibragimov Nutfillo Salimovichni OAK** qaroriga binoan **iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)** ilmiy darajasi bilan taqdirlash
2. O‘zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti **Astanova Gulnora Aminovnani OAK** qaroriga binoan filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasi bilan taqdirlash
3. Matematik analiz kafedrasida dotsenti **Rasulov To‘lqin Husenovichni OAK qaroriga binoan fizika – matematika fanlari doktori (DSc)** ilmiy darajasi bilan taqdirlash.
4. Organik va fizkolloid kimyo kafedrasida katta o‘qituvchisi Xazratova Dilshoda Azamovnani OAK qaroriga binoan **kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)** ilmiy darajasi bilan taqdirlash

1. Harbiy ta’lim fakulteti boshlig‘i, podpolkovnik **BABOYEV A‘LOMIRZO TO‘LAMIRZAYEVICH** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-dekabrdagi farmoniga binoan ta’sis etilgan **“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLI KUCHLARIGA 30 YIL”** estalik nishoni bilan;

2. Harbiy ta’lim fakulteti boshlig‘ining o‘rinbosari, podpolkovnik **TO‘RAYEV JAHONGIR ANVAROVICH** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-dekabrdagi farmoniga binoan ta’sis etilgan **“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLI KUCHLARIGA 30 YIL”** estalik nishoni bilan;

3. Harbiy ta’lim fakulteti Umumqo‘shin tayyorgarlik sikli o‘qituvchisi, zaxiradagi mayor **HAYDAROV MUZAFFAR O‘RMONOVICH** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-dekabrdagi farmoniga binoan ta’sis etilgan **“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLI KUCHLARIGA 30 YIL”** estalik nishoni bilan;

4. Harbiy ta’lim fakulteti o‘quv bo‘lim boshlig‘i, zaxiradagi kapitan **ABDULLAYEV AMRILLO NASULLAYEVICH** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-dekabrdagi farmoniga binoan ta’sis etilgan **“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLI KUCHLARIGA 30 YIL”** estalik nishoni bilan;

5. Harbiy ta'lim fakulteti Maxsus tayyorgarlik sikli katta o'qituvchisi, zaxiradagi leytenant RAXIMOV FARRUX BOLTAYEVICH O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 30 yilligi va Vatan himoyachilari kuni bayrami munosabati bilan Vatanimiz tinchligini saqlash, xalqimizni osoyishta va farovon hayotini ta'minlashda ko'rsatgan fidoyiligi, xizmat vazifalarini bajarishdagi jonbozligi uchun O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining 2022-yil 7-yanvardagi buyrug'iga binoan "**FAXRIY YORLIQ**" bilan taqdirlandi.

Kengash raisi bugungi 6 - kengash yig'ilishida 74 nafar kengash a'zosidan 70 nafari ishtirok etayotganligini, 4 nafar kengash a'zosi sababli bugungi kengashda ishtirok etmayotganligini ma'lum qilib, yig'ilishni ochish to'g'risidagi masalani kengash a'zolari hukmiga havola etdi. Kengash a'zolari yig'ilishni ochiq deb qabul qilishni bir ovozdan ma'qullashdi.

Shundan so'ng, kengash kun tartibi o'qib eshittirildi.

RAIS: hurmatli Kengash a'zolari, bugungi yig'ilish kun tartibi sizga ma'lum.

KUN TARTIBI:

I. Universitet jamoasi bilan amalga oshiriladigan masalalar yo'nalishi bo'yicha:

1.1. Universitetning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Taraqqiyot strategiyasi"ga mos ravishda yo'nalishlar bo'yicha strategiyasi, chora tadbir va ish rejalarini tasdiqlash to'g'risida.

(Rektor O.X. Xamidov va prorektorlar)

1. (Rektor O.X. Xamidov va prorektorlar)

II. O'quv jarayoni yo'nalishi bo'yicha:

2. 2022-yil 24-yanvardan boshlab, bir oy muddat davomida ta'lim olish tizimini masofaviy (onlayn) shaklda olib borish va ta'lim jarayonini sifatli tashkil etish to'g'risida

(O'quv ishlari bo'yicha prorektor v.b. R.G'. Jumayev axboroti)

III. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar yo'nalishlari bo'yicha:

3. 2022-yil uchun ilmiy tadqiqot ishlari rejasini tasdiqlash, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-dekabrda "Ilm-fan va ta'lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo'shimcha haq to'lash tartibi to'g'risida"gi 1030-sonli Qarori ijrosi to'g'risida

(Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor O.S.Qahhorov axboroti)

IV. Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar yo'nalishi bo'yicha:

4. Universitet jamoat tashkilotlari (O'zbekiston yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti, Xotin-qizlar qo'mitasi, xodimlar kasaba uyushmasi, «Talaba» sport klubi, "Murabiylar kengashi" faoliyati to'g'risida

(Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor A.M. Kadirov axboroti)

V. Xalqaro hamkorlik bo'yicha:

5. Qo'shma ta'lim dasturlariga qabulni natijalari haqida

(Qo'shma dasturlar bo'limi boshlig'i O. H. Raximov)

VI. Monitoring va ichki nazorat bo'limi

1. 2021-yilda Buxoro davlat universiteti bo'limlari va fakultetlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Hayat qarorlari va buyruqlari, rektor buyruqlari va topshiriqlarining ijro holati to'g'risida

2. Universitetda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarining 2021-yil tahlili to'g'risida

(Monitoring va ichki nazorat bo'limi boshlig'i A.A. Qilichev)

VII. Tanlovlar.

7.1. Kafedra mudiri, professori, dotsenti, katta o'qituvchi va o'qituvchi (asistent) lavozimlariga navbatdagi tanlovlar to'g'risida

7.2. Buxoro davlat universitetining pedagogika instituti kafedra mudiri, professori, dotsenti, katta o'qituvchisi va o'qituvchisi lavozimiga tanlovlar to'g'risida

VIII. Turli masalalar.

8.1. Universitetning pedagog xodimlari tomonidan tayyorlangan darslik va o'quv qo'llanmalarni vazirlik grifini olishga tavsiya berish to'g'risida.

8.2. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 10-avgustdagi 412-son buyrug'i asosida magistraturaning oxirgi bosqichi talabalariga bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining xususiyatlaridan kelib chiqib, universitet kengashi qarori asosida bakalavriat talabalariga dars berish uchun 0,5 stavkagacha pedagogik faoliyat olib borishga ruxsat berish to'g'risida

8.3. O'quv jarayonida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etilganligini inobatga olib, fakultet dekanlariga berilgan hayfsan - intizomiy jazoni bekor qilish to'g'risida

8.4. BuxDU huzuridagi PKQT va MO mintaqaviy markazi faoliyatini o'rganish natijalari to'g'risida
(O'quv ishlari bo'yicha prorektor v.b. R.G'. Jumayev axboroti)

8.5. Professor-o'qituvchilarga ilmiy-ijodiy ta'til berish to'g'risida

8.6. Professorlik va dotsentlik unvoniga tanlovlar haqida

8.7. Doktorant (DSc), tayanch doktorant (PhD) va mustaqil izlanuvchilarning dissertatsiya mavzularini qayta tasdiqlash va ilmiy rahbar birlashtirish to'g'risida.

(Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor O.S.Qahhorov axboroti)

8.8. "Maktab ta'limini rivojlantirishga ko'maklashish kengashi" ni tuzish to'g'risida

(BuxDUning pedagogika instituti direktori M.I. Daminov)

8.9. Rus tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti, f.f.d. (DSc) Nigmatova Lolaxon Xamidovna rahbarligida tayyorlangan "Arxitektura-qurilish atamalarining o'zbekcha-ruscha, ruscha-o'zbekcha izohli elektron lug'atini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihani ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida amaliy hamda innovatsion loyihalar tanloviga (27-47-tur) tavsiya etish to'g'risida.

8.10. Қўшма дастур талабалари учун IELTS imtihon xarajatlarini universitet qo'shma dasturlar hisobidan to'lab berish tўғрисида.

8.11. 2021/2022 ўқув йили қабул жараёнларида йўл қўйган камчиликлари учун тегишли маъсулларга берилган интизомий жазо ("ҳайфсан")ни муддатидан олдин бекор қилиш тўғрисида

8.12. Universitetning ichki tartib qoidasini tasdiqlash to'g'risida

KENGASH REGLAMAYENTI

Axborotlar uchun

10 daqiqagacha

So'zga chiquvchilar uchun.....3 daqiqagacha

Ma'lumotlar uchun

3 daqiqagacha

Ushbu kun tartibi va reglamenti xususida takliflaringiz bormi?

Ovozlar: tasdiqlansin.

RAIS: kun tartibini tasdiqlash to'g'risida taklif bo'ldi. Uni ovozga qo'yaman.

Tarafdorlar 70 nafar

Qarshilar – yo'q.

Betarflar – yo'q.

Demak, kun tartibi tasdiqlandi. Kun tartibidagi maslalar muhokamasiga o'tamiz.

KUN TARTIBI BO‘YICHA MASALALAR MUHOKAMASIGA O‘TILDI

I. Universitet jamoasi bilan amalga oshiriladigan masalalar yo‘nalishi bo‘yicha:

ESHITILDI: O.X. Xamidov (universitet rektori, kengash raisi) Universitetning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Taraqqiyot strategiyasi”ga mos ravishda yo‘nalishlar bo‘yicha strategiyasi, chora tadbir va ish rejalarini tasdiqlash to‘g‘risida quyidagilarni aytib o‘tdi.

Bugungi davrda Yangi O‘zbekiston “Inson qadri ustuvor bo‘lgan jamiyat va xalqparvar davlat” degan muhim g‘oya negizida barpo etilmoqda. Davlatimiz Rahbari belgilab bergan bu ulug‘vor maqsad asosida xalqimiz yangidan-yangi islohotlarning haqiqiy muallifiga aylanib bormoqda.

Shu munosabat bilan, “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyili asosida keyingi besh yillikda mamlakatimizda amalga oshiriladigan islohotlarning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma‘rifiy asoslarini yaratib berishga qaratilgan Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi loyihasi joriy yil 31-dekabrda boshlab Internetdagi regulation.gov.uz, 2022-2026.strategy.uz va jamoatchilik.uz portallarida keng jamoatchilik muhokamasi uchun joylashtirildi.

Kuni - kecha ushbu loyiha muhokamasi universitetimizda keng jamoatchilik bilan birgalikda o‘rganib chiqildi

Taraqqiyot strategiyasi loyihasi:

- inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;
- mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;
- milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, uning o‘shish sur‘atlarini zamon talablari darajasida ta‘minlash;
- adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;
- ma‘naviy taraqqiyotni ta‘minlash, ushbu sohani tubdan isloh etish va yangi bosqichga olib chiqish;
- umumbashariy muammolarga milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda yechim topish;
- mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq va pragmatik, faol tashqi siyosat olib borishga qaratilgan 7 ta ustuvor yo‘nalishdagi masalalarni qamrab oladi.

Loyihada Davlat Rahbarining O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqi va saylovoldi dasturida ilgari surilgan tashabbuslar aks ettirilgan.

Muhokamalar davomida davlat organlari mas‘ul xodimlari, tegishli soha mutaxassislari, ilmiy doira vakillari hamda mahalliy va xalqaro ekspertlar ishtirokida konferensiya va davra suhbatlari tashkil etiladi.

Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi va uni 2022-yilda amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni tasdiqlashni nazarda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni loyihasi tayyorlandi.

Loyihada mutlaqo yangi yondashuv qo‘llanilib, rejalashtirilgan islohotlar natijadorligini taraqqiyotning maqsadlariga erishganlik darajasi asosida baholash tizimi joriy etilmoqda.

Jumladan, Taraqqiyot strategiyasi va uni 2022-yilda amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”da mamlakatimizni rivojlantirishning 7 ta ustuvor yo‘nalishi doirasida qariyb 100 ta maqsadlarga erishish nazarda tutilmoqda.

1. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish yo‘nalishida quyidagi maqsadlarga erishishga qaratilgan 41 ta chora-tadbir belgilanmoqda:

— xalq bilan muloqotning mexanizmlari va ta'sirchan jamoatchilik nazoratining asoslarini takomillashtirish, "Obod qishloq", "Obod mahalla" va boshqa hududiy dasturlar ochiq e'lon qilinib, keng jamoatchilik fikri asosida ishlab chiqiladigan tizimni yaratish;

— mahallaning "faol modeli"ni joriy etish, uni aholining muammolarini bevosita hal qilish hamda hududni rivojlantirish uchun zarur resurs va imkoniyatlar bilan ta'minlash;

— "Elektron parlament" doirasida deputatlarni o'z saylovchilari bilan, senatorlarni hududlardagi fuqarolar bilan bog'lash, ular bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot olib borish, saylovchilarni qiynayotgan muammolarni muhokama qilish va hal etish jarayonini raqamlashtirish;

— xalq deputatlari Kengashlarini hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirish, mahalliy budjetni shakllantirish va nazorat qilishdagi asosiy bo'g'inga aylantirish hamda mahalliy davlat hokimiyati faoliyatining asoslarini yangilash;

— davlat organlari faoliyatini "fuqaroga xizmat qilishga yo'naltirish" g'oyasi asosida transformatsiya qilish, ular tomonidan markaziy tuzilma va hududlar kesimida "mahallabay" ishlashga qaratilgan yillik dasturlarni e'lon qilish va muhokama qilish tartibini joriy etish;

— ixcham, professional, yuqori natijadorlikka xizmat qiladigan davlat boshqaruvi tizimini joriy etish, davlat xizmatini zamonaviy standartlar asosida tashkil qilish va byurokraziyani bartaraf etish;

— "Elektron hukumat" tizimini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarining ulushini amaldagi 54 foizdan 100 foizga yetkazish, davlat xizmatlari qamrovini oshirish.

2. Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish yo'nalishida quyidagi maqsadlarga erishishga qaratilgan 28 ta chora-tadbir belgilanmoqda:

— mulk huquqi daxlsizligini ishonchli himoya qilishni ta'minlash va qaror (harakat) noqonuniy emasligini sudda isbotlash majburiyatini mansabdor shaxsning o'ziga yuklash ("aybdorlik prezumpsiyasi");

— fuqarolarni yashash joyi bo'yicha hisobga olish ("propiska") tizimini yanada soddalashtirish va aholiga qo'shimcha qulayliklar yaratish, tekshirish uchun fuqaroni ichki ishlar bo'limiga olib boorish o'rniga barcha ma'lumotlarni joyida tekshirish tartibini joriy etish;

— jinoyat qonunchiligini liberallashtirish siyosatini izchil davom ettirish, jazoni o'tab bo'lganlarni jamiyatga reintegratsi qilish va ularga tadbirkorlik loyihasini amalga oshirish uchun "dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi"ni berish tizimini joriy etish;

— ma'muriy adliyani rivojlantirish orqali, davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o'rnatish;

— yo'l infratuzilmasini takomillashtirish va xavfsiz harakatlanish sharoitlarini yaratish orqali, yo'llarda o'lim holatlarini keskin qisqartirish bo'yicha dastur qabul qilish;

— huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish, ularning faoliyatini xalq manfaatlariga xizmat qilish hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashga yo'naltirish;

— advokatura institutining inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda salohiyatini tubdan oshirish, uning institutsional mustaqilligini ta'minlash.

3. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, uning o'sish sur'atlarini zamon talablari darajasida ta'minlash yo'nalishida quyidagi maqsadlarga erishishga qaratilgan 133 ta chora-tadbir belgilanmoqda:

— aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulotni – 1,6 baravar hamda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravar ko'paytirish;

— bank tizimida xususiy sektor ulushini amaldagi 18 foizdan 60 foizgacha oshirish hamda fond bozori hajmini 7 mlrd dollarga yetkazish;

— qo'shilgan qiymat solig'ini amaldagi 15 foizdan 12 foizgacha, telekommunikatsiya, bank va moliya kabi sohalarda foyda solig'ini amaldagi 20 foizdan 15 foizgacha tushirish;

— iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish va havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini 10 foizga qisqartirish;

- raqamli iqtisodiyot hajmini 2,5 baravar ko‘paytirib, dasturiy mahsulotlar industriyasi hajmini 500 mln. dollarga yetkazish;
- iqtisodiyotga 120 mlrd, shu jumladan 70 mlrd dollar miqdorida xorijiy investitsiyalarni jalb etish, eksport hajmini 30 mlrd dollarga yetkazish;
- dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘rishini kamida 5 foizga yetkazish;
- suv resurslarini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish va suvni tejash bo‘yicha alohida davlat dasturini amalga oshirish, har yili kamida 7 mlrd m³ suvni tejash;
- chorvachilik ozuqa bazasini kengaytirish va ishlab chiqarish hajmini 1,5-2 baravar ko‘paytirish;
- meva-sabzavotchilikni rivojlantirish, intensiv bog‘lar maydonini 3 baravar va issiqxonalarni 2 baravar ko‘paytirib, eksport salohiyatini 1 mlrd dollarga oshirish;
- sharoiti “og‘ir” bo‘lgan 14 ta tumanlarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun pasaytirilgan soliq stavkalarini o‘rnatish;
- “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qiling” dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 mln nafardan oshirish hamda xorijiy turistlar sonini 9 mln nafarga yetkazish.

4. Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish yo‘nalishida quyidagi maqsadlarga erishishga qaratilgan 55 ta chora-tadbir belgilanmoqda:

- maktabgacha ta‘limning qamrov darajasini 67 foizdan 80 foizga yetkazish, nodavlat bog‘chalarga va maktablarga farzandini yuborayotgan ota-onalarning 3 mln so‘mgacha to‘lovlarini daromad solig‘idan ozod etish;
- maktablarni rivojlantirish milliy dasturini joriy etish orqali xalq ta‘limi tizimida qo‘shimcha 1,2 million o‘quvchi o‘rni yaratish hamda darsliklarni yangilash uchun Davlat budjetidan 605 mlrd so‘m ajratish;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida 1-4-sinf o‘quvchilarini bepul ovqat bilan ta‘minlash tizimini joriy etish;
- oliy ta‘limga qamrov darajasini amaldagi 28 foizdan 50 foizga yetkazish hamda davlat-xususiy sheriklik asosida 100 ming o‘rinli talabalar turar joylarini barpo etish;
- maktab o‘quvchilarining kamida bir kasbni egallashiga ko‘maklashish tizimini joriy etish;
- budjetdan dori vositalari va tibbiy buyumlarga ajratilgan mablag‘larni 3 baravar oshirish, mamlakatda ishlab chiqariladigan dori vositalari miqdorini 80 foizga yetkazish;
- tibbiy xizmatlardagi xususiy sektorning ulushini 25 foizga yetkazish, “oilaviy shifokor” yo‘nalishi bo‘yicha mustaqil faoliyatni amalga oshirishga ruxsat berish;
- hududlarda birlamchi tibbiy-sanitariya xizmatining faoliyati “bir qadam” tamoyili asosida yo‘lga qo‘yilib, 105 ta oilaviy shifokor punkti va 31 ta oilaviy poliklinika tashkil etish;
- jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanadigan aholini 33 foizga chiqarish, mamlakatimizda Olimpiya va Paralimpiya harakatini rivojlantirish.

5. Ma‘naviy taraqqiyotni ta‘minlash, ushbu sohani tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish yo‘nalishida quyidagi maqsadlarga erishishga qaratilgan 33 ta chora-tadbir belgilanmoqda:

- “Harakatlar strategiyasidan – taraqqiyot strategiyasi sari” g‘oyasi asosida sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish;
- kitobxonlikni keng ommalashtirish va “Kitobsevar millat” umummilliy g‘oyasini ro‘yobga chiqarish;
- jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglik muhitini mustahkamlash;
- O‘zbekiston tarixini o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirish;
- “Yangi O‘zbekiston – ma‘rifatli jamiyat” konsepsiyasini amalga oshirish, shuningdek, 183 ta tuman va shaharlarda Ma‘naviyat va ma‘rifat maskanlarini barpo etish va foydalanishga topshirish;
- madaniyat va san‘at sohalarini yanada rivojlantirish, madaniyat muassasalari va obyektlarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash.

6. Umumbashariy muammolarga milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda yechim topish yo‘nalishida quyidagi maqsadlarga erishishga qaratilgan 39 ta chora-tadbir belgilanmoqda:

- xalqaro maydonda atrof muhitga oid tashabbuslar, shu jumladan Butunjahon ekologiya xartiyasini ishlab chiqishni ilgari surish;
- Orol dengizining tubida qo‘shimcha 500 ming gektar yashil maydonlarni barpo etib, umumiy hajmini 2,5 million gektarga yetkazish;
- ekstremizm va terrorizm, ayniqsa uning zamonaviy ko‘rinishlariga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini shakllantirish;
- yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish orqali kambag‘alilik va ishsizlik darajasini kamida 2 baravar qisqartirish;
- kasbga o‘qitish ko‘lamini 2 baravar oshirib, jami 1 million ishsiz kishini kasb-hunarlariga o‘qitish va bu jarayonda nodavlat ta‘lim muassasalarining ishtirokini 30 foizga yetkazish;
- jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat xizmatchilarining daromad va mol-mulklarini deklaratsiya qilish tizimi bosqichma-bosqich joriy etish;
- xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi siyosatini olib borish;
- “Vatandoshlar” jamoat fondi orqali xorijiy davlatlardagi yurtdoshlar bilan doimiy va samarali aloqalar o‘rnatish.

7. Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq va pragmatik, faol tashqi siyosat olib borish yo‘nalishida quyidagi maqsadlarga erishishga qaratilgan 77 ta chora-tadbir belgilanmoqda:

- fuqarolarning axborot olish va tarqatish erkinligi borasidagi huquqlarini yanada mustahkamlash;
- davlatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash va harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish;
- favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan ekologik muammolarni bartaraf etish;
- Markaziy Osiyoda xavfsizlik, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalardagi yaqin hamkorlikni rivojlantirish;
- an’anaviy hamkorlar bilan munosabatlarni rivojlantirish, BMT, global va mintaqaviy tashkilotlardagi faoliyatni kuchaytirish.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri rahbarligida Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha milliy komissiya tarkibi tasdiqlanib, uning zimmasiga Taraqqiyot strategiyasidagi tadbirlar sifatli va o‘z vaqtida bajarilishini nazorat qilish vazifasi yuklanmoqda.

Bundan tashqari, hududlar bilan ishlashning yangi tartibi o‘rnatilib, unga ko‘ra har yili barcha tuman va shaharning muammo va imkoniyatlarini chuqur o‘rgangan holda hududlar kesimida taraqqiyot dasturlari ishlab chiqish, ularning ijrosi yuzasidan hokimlar xalq deputatlari Kengashlariga, Bosh vazirning o‘rinbosarlari va idoralar rahbarlari esa Oliy Majlis palatalariga hisobot berishi amaliyoti yo‘lga qo‘yiladi.

Vazirlar Mahkamasiga Taraqqiyot strategiyasi va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarida belgilangan chora-tadbirlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini tashkil etish vazifasi yuklanmoqda.

RAIS: Yuqorida sanab o‘tilgan yo‘nalishlarning har biri bo‘yicha Universitetning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Taraqqiyot strategiyasi”ga mos ravishda prorektorlar, bo‘lim boshliqlari, jamoatchilik tashkiloti rahbarlari, dekanlar, kafedra mudirlari o‘zlarining strategiyasi, chora tadbir va ish rejalarini tayyorlab, bugungi Kengash bilan tasdiqlab olishlari bo‘yicha kimdan qanday takliflar bor?

Ushbu masala bo‘yicha kengash a‘zolari o‘z takliflarini bildirishdi.

RAIS: yana fikrlar bo‘ladimi?

Ovozlar: yetarli.

RAIS: Universitetning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Taraqqiyot strategiyasi"ga mos ravishda prorektorlar, bo'lim boshliqlari, jamoatchilik tashkiloti rahbarlari, dekanlar, kafedralarning strategiyasi, chora tadbir va ish rejalarini tasdiqlash taklifni ovozga qo'yaman.

Tarafdorlar - 70 nafar

Qarshilar - yo'q

Betaraflar - yo'q

Yuqoridagilardan kelib chiqib, barcha prorektorlar, bo'lim boshliqlari, dekanlar, kafedralarning "Taraqqiyot strategiyasi"ga mos ravishda yo'nalishlar bo'yicha belgilab olgan strategiyalari, chora - tadbir va ish rejalarini tasdiqlash taklifini o'rta qo'yaman.

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. Kengash raisi O.X.Xamidovning Universitetning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Taraqqiyot strategiyasi"ga mos ravishda yo'nalishlar bo'yicha strategiyasi, chora tadbir va ish rejalarini tasdiqlash to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Kengash qaroriga ko'ra, universitetning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Taraqqiyot strategiyasi"ga mos ravishda yo'nalishlar bo'yicha strategiyasi, chora tadbir va ish rejalarini tasdiqlansin.
3. Mazkur qarorlar ijrosini samarali tashkil etishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib barcha prorektorlar belgilansin.

II. O'quv jarayoni yo'nalishi bo'yicha:

2.1. 2022-yil 24-yanvaridan boshlab, bir oy muddat davomida ta'lim olish tizimini masofaviy (onlayn) shaklda olib borish va ta'lim jarayonini sifatli tashkil etish to'g'risida

ESHITILDI: R.G'. Jumayev (O'quv ishlari bo'yicha prorektor) Bugungi axborot asri va pandemiya davrida Oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'lim tizimini shakllantirish muhimdir. Ko'pgina mamlakatlar ta'lim tizimida sifatli kadrlar tayyorlash uchun o'qish jarayoni zamonaviy AKTlarga asoslangan masofaviy ta'lim (MT) shaklini qo'llashadi. Ta'lim tizimi tajribalari ko'rsatmoldaki, o'quv jarayonida internet tizimi va AKTni yangi bilimlarni egallash, saqlash, uzatish hamda amaliy qarorlar qabul qilish vositasiga aylantirish hisobiga kadrlarning sifat darajasini tubdan yaxshilashning imkoniyatlari tobora kengayib bormokda.

Universitetda 2021/2022 o'quv yilida tahsil oladigan talabalarning umumiy kontingenti 24 119 (bakalavriat – 22 875 nafar, magistratura – 1 244 nafar) nafarni, Jumladan, xorijiy talabalarning umumiy soni 289 nafarni tashkil etdi. Masofaviy ta'lim o'quv rejalarini va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2020-yil 27-martda qabul qilingan "Oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'limni joriy etish to'g'risida"gi buyrug'iga ko'ra respublikamizdagi mavjud OTMlar masofaviy o'qitish texnologiyalarini yaratish va ishga tushirish yuzasidan ishlarni boshlagan. 2021/2022 o'quv yilida 24-yanvardan boshlab bir oy muddat davomida ta'lim olish tizimini masofaviy (onlayn) shaklda olib borish belgilandi. Bu borada Buxoro davlat universitetida ham bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 24-yanvardagi 25-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida universitet rektorining 25.01.2022-yil 29-U sonli buyrug'i ishlab chiqildi. Jumladan, 2021/2022 o'quv yili uchun masofaviy ta'limni yo'lga qo'yish bo'yicha quyidagi ishlar amalga oshirildi:

universitet O'quv-uslubiy boshqarmasi tarkibida Masofaviy ta'limni monitoring qilish Shtabi tashkil qilindi. Shtabning asosiy tarkibi 17 nafar bo'lib, o'quv-uslubiy boshqarmaning xodimlari

shtab a'zosi hisoblanadi. Shtab tarkibi <https://buxdu.uz/97-bakalavriat/3778-masofaviy-talim/> internet manziliga joylashtirildi. Shu bilan bir qatorda, fakultetlarda 81 nafar tarkibdan ichki shtablar tashkil etildi.

Masofaviy ta'limni tashkil etish uchun <https://hemis.buxdu.uz/> va onlayn nazoratlarni topshirish uchun <http://uniwork.buxdu.uz/> masofaviy ta'lim platformasi faoliyat ko'rsatmoqda.

HEMIS tizimida **1408 nafar** professor-o'qituvchi va xodimlar va **24622 nafar** talabalar masofaviy ta'lim platformasidan foydalanish uchun ro'yxatdan o'tkazildi. 2021/2022 o'quv yili o'quv rejasining kuzgi semestrda o'qitilishi rejalashtirilgan **2123 ta** fan o'zbek tilida, **1275 ta** fan rus tilida, **300 ta** fan ingliz tilida, jami **3698 ta** modul tizimdan ro'yxatdan o'tkazildi. 2021/2022 o'quv yili o'quv rejasining kuzgi semestrda o'qitilishi rejalashtirilgan fanlarning har bir mavzusi uchun videodars, audiodars, ma'ruza matni (o'quv darsligidan olingan), taqdimot, kazu savollari, nazariy topshiriqlar, test savollari 12953 ta ma'lumot (element) ko'rinishida platformaga yuklandi va qo'shimcha ma'lumotlar yuklab borilmoqda hamda barcha qo'shimcha 624 mingdan ziyod adabiyotlar va manbalap www.elib.library.buxdu.uz elektron kutubxonasiga joylashtirilgan va unga havolalar platformaga ham kiritilgan.

HEMIS platformasida kunduзgi va kечki shaklda 1-kursda **183 ta**, 2-kursda **364 ta**, 3-kursda **163 ta**, 4-kursda **97 ta**, jami **807 ta** akademik guрух faоliyat kўrsatadi. Xisobot davrida **547 ta** guрухda nazoratlar haftasi, **260 ta** guрухda ўquv mashg'ulotlari amalga oshirildi. www.uz veb saytida oliy taъlim muassasalari veb saytidan kunlik fойдаланувчилар sони бўйича **12-ўринда 6949 нафар**, электрон кутубхонадан фойдаланиш рейтингда университетнинг www.elib.library.buxdu.uz сайти **3-ўринда** (29.01.2022 йил ҳолатида) бўлиб, кунлик фойдаланувчилар sони **6575 нафар**ни ташкил этган.

Электрон ресурсларни талаб даражасида ишлаб чиқиш ва мавжудларини такомиллаштириш ҳамда масофавий таълим платформасидан фойдаланишни ташкил этиш юзасидан кафедра профессор-ўқитувчиларига тегишли кўрсатмалар берилди. Кафедралар кесимида фанларнинг электрон ўқув ресурсларини ишлаб чиқиб, HEMIS, UNIWORLD платформаларида жойлаштириб борилмоқда. Профессор-ўқитувчилар томонидан дарс жараёнларини ўз вақтида ўтилишини доимий мониторинг қилиб бориш мақсадида google таблицада онлайн дарс жадвали яратилди, дарслар ZOOM, телеграм иловалари орқали ташкил қилиниб, ҳаволалари онлайн дарс жадвалига жойлаштирилди (https://docs.google.com/spreadsheets/d/18awUU6gxvZkurevTea6vF_VinozGRtZsuXQbAe9W14o/edit?usp=sharing). Талабалар амалиётларини белгиланган ташкилотлар билан келишилган ҳолда давом эттириш мақсадида талабалар якуний нazoratларни топширган кейин режа асосида малакавий (педагогик) амалиётга чиқади. Семестр якуни бўйича топшириладиган имтиҳонларни имконият ва заруратдан келиб чиқиб онлайн shakлга ўтказилди. Талабалар фанлардан якуний nazoratларни HEMIS ва UNIWORLD платформаларида топширишлари ташкил қилинди.

Buxoro davlat universiteti			
hemis tizimida yakuniy nazoratlarga qatnashish grafigi			
№	Fakultet	Yakuniylar topshirish vaqti Dushanba 31.01.2022	2-kurs
1	Agromiya va biotexnologiya	08:00 - 09:00	423
2	San'atshunoslik	09:00 - 10:00	476
3	Xorijiy tillar	10:00 - 11:00	893
4		11:00 - 12:00	
5	Harbiy ta'lim	12:00 - 13:00	164
6	Tabiiy fanlar		252
7	Iqtisodiyot va turizm	13:00 - 14:00	477
8	Filologiya	14:00 - 15:00	612
9	Pedagogika	15:00 - 16:00	251
10	Jismoniy madaniyat	16:00 - 17:00	535
11	Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim	17:00 - 18:00	590
12	Tarix va madaniy	18:00 - 19:00	540
Jami:			5213

Университетда мавжуд масофавий таълим платформасидан фойдаланиш бўйича профессор-ўқитувчилар ва талабалар учун йўриқнома ишлаб чиқилди ва www.buxdu.uz расмий сайтига жойлаштирилди. (<https://buxdu.uz/97-bakalavriat/3778-masofaviy-talim/>). www.buxdu.uz расмий сайтида Талабаларга – Бакалаврият – Масофавий таълим бўлими яратилди ва мазкур бўлимда: Бухоро давлат университетида онлайн таълим жараёнларини сифатли ташкил этиш ва назорат қилиш бўйича Университет бош штаб таркиби тўғрисидаги маълумот, НЕМИС тизими бўйича **18 та йўриқнома** ва **4 та видео қўлланма** жойлаштирилди. Талаба ва профессор-ўқитувчиларнинг мурожаати учун факультетларда call-марказ ташкил қилинди ва уларнинг маълумотлари бухду.уз расмий сайтига жойлаштирилди. (<https://buxdu.uz/97-bakalavriat/3771-talabalar-uchun-call-center-masullari/>)

Талабалар электрон кутубхона elib.buxdu.uz дан фойдаланиш самарадорлигини ошириш мақсадида телеграм расмий саҳифаларида эълонлар бериб борилмоқда. Университет ўқув ишлари бўйича проректор в.б. Р.Ф. Жумаев томонидан **27.01.2022 йилда** https://t.me/buxdu_uz телеграм расмий канали орқали талабалар ва профессор-ўқитувчилар билан овозли чат орқали суҳбат уюштириб талабаларни қизиқтирган саволларга жавоб берилди. Шу билан бирга талабаларнинг мурожаатларини амалга ошириш учун шароит яратиш ва жавоб йўллаш мақсадида https://t.me/StudentApplication_Bot номли телеграм бот ташкил қилинди. 2021/2022 о'quv yili uchun professor-o'qituvchilar o'rtasida o'quv yuklamalarini o'quv jarayoni masofaviy tashkil etilishi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish zaruratini hisobga olgan holda taqsimlandi. Videoma'ruzalarni sifatli qilib tayyorlash uchun universitet mediamarkazida tegishli mutaxassislarni taklif qilgan holda professional videoma'ruzalar yozildi. Bugungi kunda o'quv jarayoni <https://hemis.buxdu.uz/> masofaviy ta'lim platformasi hamda Zoom dasturi orqali amalga oshirilmoqda, shuningdek **Zoom орқали** olib borilayotgan ma'ruzalar yozib olinib universitetning youtube kanaliga va talabalarining telegram ijtimoiy tarmog'idagi guruhlariga yuklab borilmoqda.

Ta'lim platformasida talabalar har bir fanni mavzular kesimida o'zlashtirib borishi, bunda mavzuni o'zlashtirishda uni to'liq ko'rib chiqishi talab etiladi, mavzuni yakunlamasdan keyingi mavzuga o'tishi bo'yicha cheklov o'rnatilgan. Seminar mashg'ulotlarini olib borish uchun uchun Telegram tizimining CHAT elementlari hamda seminar o'tkazish, topshiriq berish va uni javobini tekshirish mexanizmlaridan foydalanish yo'lga qo'yilgan.

Professor-o'qituvchilar va talabalar uchun НЕМИС tizimidan foydalanish bo'yicha yo'riqnoma, qo'llanma, vidoyetushuntirishlar tayyorlanib yetkazib borilmoqda, jumladan elektron ta'lim platformasiga tizimdan foydalanish bo'yicha o'zbek va rus tillarida yo'riqnomalar va videoroliklar joylashtirilgan. Shuningdek, tizimli ravishda har hafta professor-o'qituvchilar uchun masofaviy ta'lim platformasidan foydalanish va masofaviy o'qitish metodlari bo'yicha onlayn treninglar tashkil etib kelinmoqda. Elektron ta'lim platformasidan foydalanish (faollik) holati ham tahlil etib borilmoqda.

Ta'limda yangi raqamli texnologiyalarni qo'llash uning normativ huquqiy asoslarini takomillashtirib borishni taqozo etib, bu esa o'z navbatida, innovatsion masofaviy ta'lim sohasidagi qonun hujjatlarini unifikatsiya qilishni va uni amaliyotda to'g'ridan-to'g'ri qo'llash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Место	Название ресурса	TAS-IX	Посетители	Просмотры
1 ↑4	Каршинский государственный университет		32 440	513 853
2 ↓5	Ургенчский государственный университет		31 165	605 021
3 ↓1	Ташкентский Государственный Педагогический Университет		23 643	147 566
4 ↑2	Самаркандский Государственный Медицинский Институт		19 741	175 375
5 ↑3	Андижанский государственный медицинский институт		17 509	227 371
6 ↓3	Наманганский государственный университет		16 470	31 376
7 ↑7	Ташкентская Медицинская Академия		15 145	339 442
8	Джизакский Государственный педагогический институт		14 155	115 491
9 ↑2	Ташкентский государственный транспортный университет		10 540	195 033
10 ↑4	Каракалпакский государственный университет		9 370	151 528
11 ↓3	Каршинский Инженерно-Экономический Институт		8 540	209 136
12 ↑5	Бухарский государственный университет		8 049	12 353
13	Ташкентский государственный стоматологический институт		4 785	91 309
14 ↓1	Навоийский государственный педагогический институт		4 303	9 992
16 ↑13	Наманганский инженерно-технологический институт		2 810	74 788

Вчерашний день

 Только по TAS-IX

Применить

Место	Название ресурса	TAS-IX	Посетители	Просмотры
1 ↑7	ZiyoUz - Культурно-просветительский портал		14 401	25 637
2 ↓3	ZiyoNET - Информационная образовательная сеть.	TAS-IX	7 819	15 498
3 ↑1	Электронная библиотека БухГУ	TAS-IX	4 718	5 575
4 ↑5	Библиотека Хуршида Даврона: литература и история		4 688	6 303
5 ↓3	Китобхон		4 614	8 609
6 ↓8	saviya.uz - Сайт о литературе и жизни		3 262	4 661
8 ↑5	Taqvim.uz - Республиканская детская библиотека	TAS-IX	2 495	3 633
9 ↑1	Информационный центр для всех, предоставленный библиотечарем		1 978	2 965
10 ↑38	ouyna.uz духовно-просветительский портал	TAS-IX	1 889	3 234
11	Book.uz - Библиотека электронной литературы	TAS-IX	1 211	2 040
12 ↓30	Library.tsu.uz - Электронная библиотека Ташкентского государственного юридического университета		499	1 318
13 ↑1	Самаркандская областная Детская библиотека	TAS-IX	494	650
14 ↓21	Информационно-Библиотечный Центр им.Ахмада аль Фаргоний	TAS-IX	423	671
15 ↓34	Ешлар портали	TAS-IX	350	593

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. O‘quv ishlari bo‘yicha proyektor v.v.b. R.G‘. Jumayevning 2022-yil 24-yanvaridan boshlab, bir oy muddat davomida ta‘lim olish tizimini masofaviy (onlayn) shaklda olib borish va ta‘lim jarayonini sifatli tashkil etish to‘g‘risidagi axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Masofaviy ta‘limning informatsion resurs bazasi to‘liq qayta ko‘rib chiqilsin va doimiy ishlashi nazoratga olinsin.

3. Talabalarni onlayn darslar, oraliq va yakuniy nazoratlarda ishtiroki monitoring qilinsin hamda mustaqil ta‘lim uchun ko‘proq topshiriqlar berilsin.

4. Barcha professor-o‘qituvchilarga onlayn darslarni o‘tishlari uchun sharoitlar yaratib berilsin. Internet tezligi yuqori bo‘lgan alohida xonalar ajratilsin (Mas‘ul: M.Husenov).

5. Talabalar amaliyoti belgilangan tashkilotlar bilan kelishgan holda amaliyotlarni davom ettirilishi ta‘minlansin. Bunda korxon va tashkilotlarda amaliyot guruhlaridagi talabalar soni 5-10 nafardan oshirmasligi nazoratga olinsin.

7. Faoliyat olib borayotgan tyutorlar talabalar bilan doimiy aloqada bo‘lishi hamda fan o‘qituvchilaridan olingan ma‘lumotlar bo‘yicha, ularni darslarda va oraliq, yakuniy nazoratlarda ishtirok etishlari ta‘minlansin.

IV. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar vo‘nalishlari bo‘yicha:

4. 2022-yil uchun ilmiy tadqiqot ishlari rejasini tasdiqlash, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-dekabrda “Ilm-fan va ta‘lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug‘ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo‘shimcha haq to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi 1030-sonli Qarori ijrosi to‘g‘risida

ESHITILDI: O.S.Qahhorov (Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor) 2022-yil uchun ilmiy tadqiqot ishlari rejasini tasdiqlash, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-dekabrda “Ilm-fan va ta‘lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug‘ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo‘shimcha haq to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi 1030-sonli Qarori ijrosi to‘g‘risida axborot berdi.

Buxoro davlat universitetida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-dekabrda “Ilm-fan va ta‘lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug‘ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo‘shimcha haq to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi 1030-sonli hamda 2021-yil 28-avgustda “Ilmiy va innovatsion faoliyatni boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 545-sonli qarorlarida belgilangan talablarning

ijrosini ta'minlash maqsadida Universitet rektorining **2022 йил 5 январдаги 4-У-01-сонли** ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo'shimcha haq to'lashni belgilash bo'yicha **15 nafar** dan iborat ishchi komissiya tarkibi tasdiqlandi.

Kafedralarda faoliyat ko'rsatayotgan ilmiy darajaga ega xodimlarning lavozim maoshiga **har oylik qo'shimcha haq** to'lash (fan nomzodi, falsafa doktori (PhD) 30 foizgacha, fan doktori 60 foizgacha) bo'yicha professor – o'qituvchilarning hujjatlar yig'ma jildi kafedra mudirlari tomonidan Ishchi komissiyaga taqdim etildi. Ishchi komissiya ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo'shimcha haq to'lash to'g'risidagi Nizom hamda mezon talablari asosida o'rganib chiqdi va quyidagicha xulosa qildi:

a) oliy ta'lim muassasasi elektron platformasiga o'quv yuklamasida nazarda tutilganidan tashqari mustaqil ishlab chiqilgan va o'quv jarayonida foydalanilayotgan o'z o'quv uslubiy majmualarini (modul dasturi, o'quv kontenti, muammoli vaziyat, kazu test, video dars) joylashtirganligi uchun;

har bir majmua (modul) uchun o'zbek yoki rus tilida, shuningdek, chet tili mutaxassisliklari bo'yicha jami **67 nafar** ilmiy darajaga ega xodimlar lavozim maoshiga nisbatan 5 foizgacha;

xorijiy tilda (til mutaxassisligidan tashqari) har bir majmua (modul) uchun bo'yicha jami **12 nafar** ilmiy darajaga ega xodimlar lavozim maoshiga nisbatan 10 foizgacha belgilandi;

b) hamkor tashkilotlar bilan birgalikda ilmiy yoki laboratoriya vositalaridan keng foydalangan holda yangi o'quv mahsulotlari (trening kurslari, uslubiy ta'minotli o'yinlar)ni ishlab chiqqani va joriy etgani uchun:

o'zbek yoki rus tilida, shuningdek, til mutaxassisliklari bo'yicha jami **1 nafar** ilmiy darajaga ega xodimlar chet tilida har bir mahsulot (majmua) uchun lavozim maoshiga nisbatan 10 foizgacha;

xorijiy tilda (til mutaxassisliklaridan tashqari) har bir mahsulot (majmua) uchun jami **0 nafar** ilmiy darajaga ega xodimlar lavozim maoshiga nisbatan 20 foizgacha belgilanadi.

v) ixtisoslashgan ilmiy kengashlar huzuridagi ixtisosliklar bo'yicha (chet tili va mutaxassislik fanlaridan) malakaviy imtihon komissiyasi hamda oliy ta'limdan keyingi ta'limning barcha shakllarida o'qishga talabgorlarni tanlov olish uchun kirish imtihonlar va izlanuvchilarni monitoringdan o'tkazish jarayonida komissiya (ishchi guruh) a'zosi bo'lganligi uchun jami **80 nafar** ilmiy darajaga ega xodimlar lavozim maoshiga nisbatan 5 foiz miqdorida belgilanadi.

r) oliy ta'lim muassasalarining birinchi mingtalik (top-1000) yoki fan yo'nalishlari bo'yicha birinchi yuztalik (top-100) xalqaro (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytinglarga kirgan oliy ta'lim muassasalarining onlayn ta'lim platformalariga kiritilgan yoki sayyor shaklda o'tkazilgan har bir ma'ruza uchun jami **27 nafar** ilmiy darajaga ega xodimlar lavozim maoshiga nisbatan 30 foizgacha belgilanadi.

ye) ilmiy darajalar beruvchi xorijiy ilmiy, ekspertlik, ilmiy-texnik kengashlarda a'zolik (ishtirok etish) uchun jami **0 nafar** ilmiy darajaga ega xodimlar lavozim maoshiga nisbatan 30 foizgacha belgilanadi.

z) Scopus ma'lumotlar bazasida kamida oxirgi ikki yil ichida doimiy ravishda bo'lgan (ushbu talab O'zbekiston nomidan kiritiladigan jurnallarga nisbatan tatbiq etilmaydi) hamda Web of Science indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalari jurnallarida e'lon qilingan har bir maqola (monografiya) uchun jami **48 nafar** ilmiy darajaga ega xodimlarga (bir nechta muallif bo'lgan taqdirda, teng miqdorda taqsimlangan holda) lavozim maoshiga nisbatan 15 foizgacha belgilanadi.

i) o'quv jarayonida amaliy qo'llaniladigan yoki ishlab chiqarishga joriy qilingan intellektual faoliyat natijasi hamda o'rnatilgan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan darslik, o'quv qo'llanma, tadqiqotni amaliyotga joriy qilinganligi haqida markaziy davlat organlari va davlat boshqaruv organlarining dalolatnomasi borligi uchun jami **81 nafar** ilmiy darajaga ega xodimlar lavozim maoshiga nisbatan 15 foizgacha miqdorida belgilanadi.

k) har bir ixtiro va/yoki foydali modelga xorijiy patent olganlik uchun jami **0 nafar** ilmiy darajaga ega xodimlarga (bir nechta muallif bo'lgan taqdirda, teng miqdorda taqsimlangan holda) lavozim maoshiga nisbatan 30 foizgacha miqdorida belgilanadi.

l) ilmiy, ilmiy-ommabop jurnallar tahrir hay'ati a'zoligi uchun:

mahalliy jurnallarda jami **33 nafar** ilmiy darajaga ega xodimlarga lavozim maoshiga nisbatan 15 foizgacha;

xorijiy jurnallarda jami **136 nafar** ilmiy darajaga ega xodimlarga lavozim maoshiga nisbatan 30 foizgacha belgilanadi.

Ishchi komissiya tomonidan oliy ta'lim muassasasi bo'yicha jami **267 nafar** ilmiy darajaga ega xodimlardan, faoliyat natijalari tegishli mezon talablariga javob beradigan har oylik qo'shimcha haq to'lanishiga munosib 204 nafar ro'yxati shakllantirildi.

Komissiyaga kafedra mudirlari tomonidan taqdim etilgan ma'lum bir davr uchun erishilgan natijalar yig'indisidan kelib chiqqan holda lavozim maoshiga bir martalik qo'shimcha haq to'lanadigan xodimlarning faoliyati natijalari asosida:

b) dissertatsiyaning o'z vaqtida yoki muddatidan oldin himoya qilinishini ta'minlaganligi uchun:

falsafa doktorlari (PhD) jami **0 nafar** ilmiy rahbarlariga lavozim maoshiga nisbatan 30 foizgacha;

fan doktorlari (DSc)) jami **0 nafar** ilmiy maslahatchilariga lavozim maoshiga nisbatan 60 foizgacha;

b) tashkilotning mezbon sifatida ishtirok etadigan nufuzli xalqaro konferensiyani (simpozium, davra suhbat) tashkil etganligi uchun, jami **0 nafar** ilmiy darajaga ega xodimlarning qo'shgan hissasini hisobga olgan holda lavozim maoshiga nisbatan 60 foizgacha;

g) xorijiy mamlakatlarda tashkil qilingan ilmiy-pedagogik faoliyatga oid xalqaro tadbirlarda (forumlar, konferensiyalar, kongresslar, anjumanlar va boshqalar) taklifga asosan ma'ruza bilan qatnashganligiga jami **0 nafar** ilmiy darajaga ega xodimlarga har bir ishtiroki uchun lavozim maoshiga nisbatan 30 foizgacha;

d) xorijiy xalqaro ko'rgazmalarda o'zlarining ilmiy yutuqlarini ommalashtirishda rasmiy ishtirok etganligiga jami **0 nafar** ilmiy darajaga ega xodimlarga har bir ko'rgazma uchun lavozim maoshiga nisbatan 30 foizgacha;

ye) ixtisoslashgan xalqaro ma'lumotlar bazasiga kiritilgan har bir ilmiy nashr (monografiya, ilmiy referat, informatsion referat, uslubiy ishlanmalar, tavsiyalar, tezislari, shuningdek ilmiy konferensiya materiallari, ilmiy maqolalar, ilmiy ishlar to'plamlari) uchun jami **10 nafar** ilmiy darajaga ega xodimlar lavozim maoshiga nisbatan 30 foizgacha;

j) davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining murojaatiga asosan ilmiy-amaliy takliflarni tayyorlash uchun qo'shgan hissasini hisobga olgan holda, jami 0 nafar ilmiy darajaga ega xodimlar lavozim maoshiga nisbatan 30 foizgacha.

Ishchi komissiyasi tomonidan universitet bo'yicha jami **267 nafar ilmiy darajaga ega xodimlardan**, faoliyat natijalari tegishli mezon talablariga javob beradigan **bir martalik qo'shimcha haq to'lanishiga munosib 10 nafar** ro'yxati shakllantirildi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. Kun tartibidagi masala yuzasidan ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor

O.S.Qahhorovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-dekabr**dagi "Ilm-fan va ta'lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo'shimcha haq to'lash tartibi to'g'risida"gi **1030-sonli hamda 2021-yil 28-avgust**dagi "Ilmiy va innovatsion faoliyatni boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi **545-sonli** qarorlari ijrosi bo'yicha ishchi guruhining tahlil natijalariga ko'ra ilmiy darajaga ega pedagog xodimlarning ilmiy-innovatsion faoliyati qoniqarli deb topilsin.

3. Kelgusida **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24 dekabr**dagi "Ilm-fan va ta'lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo'shimcha haq to'lash tartibi to'g'risida"gi **1030-sonli hamda 2021-yil 28-avgust**dagi "Ilmiy va innovatsion faoliyatni boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 545-sonli qarorlariga asosan ilmiy darajali pedagog xodimlarning universitetda qo'shimcha haq olish bo'yicha salmog'ini oshirish maqsadida fakultetlar va kafedralar kesimida 2022-yilda har bir mezon bo'yicha bajarilishi lozim bo'lgan maqsadli ko'rsatgichlar ishlab chiqilsin. Fakultet dekanlari va kafedra mudirlari maqsadli ko'rsatgichlarga erishish choralarini ko'rish uchun shaxsan javobgar ekanliklari belgilab qo'yilsin

(mas'ul: fakultet dekanlari va kafedra mudirlari; muddat: 2022-yil 1-mart).

4. Ushbu qaror ijro nazorati ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor O.S Qahhorov zimmasiga yuklatilsin.

IV. Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar yo'nalishi bo'yicha:

4. Universitet jamoat tashkilotlari (O'zbekiston yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti, Xotin-qizlar qo'mitasi, xodimlar kasaba uyushmasi, «Talaba» sport klubi, «Murabiyalar kengashi» faoliyati to'g'risida

ESHITILDI: A.M. Kadirov (Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor) Universitet jamoat tashkilotlari (O'zbekiston yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti, Xotin-qizlar qo'mitasi, xodimlar kasaba uyushmasi, «Talaba» sport klubi, «Murabiyalar kengashi» faoliyati to'g'risida hisobot berdi.

Buxoro davlat universiteti kasaba uyushma qo'mitasi tarkibida xatlov natijalariga ko'ra **15 ta sex** kasaba uyushma qo'mitalari mavjud bo'lib, ularda **18566 nafar** kasaba uyushma a'zolarini birlashtiradi. Shundan: 1535 nafari professor-o'qituvchi va ishchi-xodimlar, 17031 nafari **kunduzgi bo'lim** talabalari.

Jamoa shartnomasi vositasida hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan ijtimoiy sheriklik orqali "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" dasturiga asosan 2021-yil davomida jamoa shartnomasi orqali:

- 164 nafar professor-o'qituvchi va ishchi-xodimlarga jami: 56 050 000 (ellik olti million ellik ming) so'mlik moddiy yordam ko'rsatildi;

- O'zbekiston Qurolli Kuchlarining 29 yilligi hamda 14-yanvar "Vatan himoyachilari kuni" munosabati bilan jamoadagi va Buxoro davlat universitetida faoliyat ko'rsatgan keksa yoshdagi erkak professor-o'qituvchi va ishchi-xodimlarni taklif qilib, bayram tadbirlari tashkil qilindi va universitetning "Chaqiriqqacha harbiy ta'lim" fakul'teti harbiy xodimlariga esdalik sovg'alari topshirildi;

- Afg'onistonda xalqaro terrorizm va diniy ekstremizmga qarshi harbiy harakatlar tugatilganligining 30 yilligi hamda O'zbekiston "Veteran" jangchi-faxriy va nogironlari birlashmasi tashkil etilganligining 32 yilligi munosabati bilan universitetda faoliyat ko'rsatayotgan 6 nafar afg'on urushi qatnashchilariga esdalik sovg'alari topshirildi;

- 8-mart - "Xalqaro xotin-qizlar kuni" munosabati bilan universitetda faoliyat ko'rsatayotgan barcha ayol professor-o'qituvchi va ishchi-xodimlar hamda universitetda faoliyat ko'rsatgan, ayni paytda nafaqada bo'lgan bir qator ayol xodimlarga (900 nafar) esdalik sovg'alari berildi;

- Xodimlarning sportga bo'lgan qiziqishlarini orttirish hamda 14-yanvar "Vatan himoyachilari kuni" munosabati bilan sportning mini futbol turi bo'yicha musobaqalar tashkil etildi va musobaqa g'oliblari esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5924-sonli Farmonida belgilangan vazifalar bajarilishini taminlash maqsadida universitet mamuriyati xodimlari hamda professor-o'qituvchi va ishchi-xodimlari o'rtasida shaxsiy birinchilik musobaqalari o'tkazildi va g'oliblar taqdirlandi.

- 9-may "Xotira va qadrlash kuni" munosabati bilan kasaba uyushma qo'mitasi "KUBOK"i uchun sportning mini futbol va voleybol turlari bo'yicha universitetning professor-o'qituvchi va ishchi-xodimlari o'rtasida musobaqalar o'tkazildi va musobaqa g'oliblari taqdirlandi.

- 1-iyun "Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni" munosabati bilan Universitetda faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchi va ishchi-xodimlar farzandlarining maroqli dam olishlarini, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlarini ta'minlash maqsadida ularga Buxoro viloyat qo'g'irchoq teatri" tomonidan "Turon" mehmonxonasi hovlisida tashkillashtiriladigan teatr tomoshalariga kirish uchun chiptalar tarqatildi.

- 1-sentabr "Mustaqillik kuni" hamda yangi o'quv yilining boshlanishi munosabati bilan universitetda faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchi va ishchi-xodimlardan 25 nafarining farzandlariga o'quv qurollari tarqatildi.

- 1-oktabr “O‘qituvchi va murabbiylar kuni” munosabati bilan hamda xodimlarning sportga bo‘lgan qiziqishlarini orttirish uchun universitetda faoliyat ko‘rsatayotgan professor-o‘qituvchi va ishchi-xodimlar o‘rtasida “Do‘stlik spartakiadasi” shiori ostida o‘tkazilgan sportning voleybol, shaxmat, stol tennisi, shashka, badminton turlari bo‘yicha o‘tkazilgan musobaqalarning g‘oliblari taqdirlandi.

- 1-oktabr “O‘qituvchi va murabbiylar kuni” munosabati bilan universitetda faoliyat ko‘rsatayotgan barcha professor-o‘qituvchilarga sovg‘alar tarqatildi.

- 1-oktabr “O‘qituvchi va murabbiylar kuni” munosabati bilan universitetda faoliyat ko‘rsatayotgan professor-o‘qituvchi va ishchi-xodimlar hamda nafaqadagi ustozlar ishtirokida bir payola choy ustida uch avlod uchrashuvi o‘tkazildi.

- Yurtimizda 4-10-oktabr kunlari davomida keksalar haftaligi deb e‘lon qilinganligi munosabati bilan universitetda faoliyat ko‘rsatayotgan nafaqadagi professor-o‘qituvchi va ishchi-xodimlar, universitetda faoliyat ko‘rsatib, ayni paytda nafaqada bo‘lgan ustozlar hamda faxrli mehmonlar ishtirokida bir payola choy ustida uch avlod uchrashuvi o‘tkazildi.

-Yangi 2022-yilni munosib kutib olish, professor-o‘qituvchi va ishchi-xodimlarning farzandlarini yangi yil sovg‘alari bilan ta‘minlash maqsadida barcha xodimlarning farzandlariga yangi yil sovg‘alari berildi. Bundan tashqari ichki turizmni rivojlantirish, Respublikamizning tarixiy va muborak qadamjolariga sayohatlar tashkil etish hamda universitetda faoliyat ko‘rsatayotgan professor-o‘qituvchi va ishchi-xodimlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishlarini ta‘minlash maqsadida 47 (qirq yetti) nafar xodimning Samarqand shahriga borishlarini tashkillashtirildi.

XOTIN-QIZLAR MASLAHAT KENGASHI TOMONIDAN AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR

1. Shaxs ma‘naviyatini yuksaltirish, milliy qadriyat va liboslar targ‘iboti bo‘yicha turli xil 34 ta tadbirlar tashkil etilgan

Shaxs ma‘naviyatini yuksaltirish, milliy qadriyat va liboslar targ‘iboti bo‘yicha universitet xotin-qizlari o‘rtasida 34 ta davra suhbatlari, uchrashuvlar, ochiq muloqotlar tashkil etildi. Jumladan, 2021 yil 21 yanvar kuni “Qizim senga aytar gapim bor” mavzuida universitet olim ayollari bilan davra suhbatlari o‘tkazildi. Davra suhbatida professor-o‘qituvchilar va talabalarning ma‘ruzalari tinglandi hamda erkin muloqot bo‘lib o‘tdi. 2021 yil 5 fevral kuni Xotin-qizlar kengashi va “Ibn sino salomatlik maskani” ma‘rifiy markazi tomonidan TTJ da “Milliy qadriyatlar va milliy liboslar”, 2021 yil 12 fevral kuni tabiiy fanlar fakultetida “Uyat va mas‘uliyat yo‘qolsa”, 2021 yil 11 fevral kuni Pedagogika fakultetida “OITS – asr vabosi” va “Inson – tabiat gultoji” mavzuida davra suhbatlari o‘tkazildi.

2021 yil 2 mart kuni Pedagogika fakultetining 1-kurs talaba-qizlari o‘rtasida “Qizlar davrasi” ko‘rik-tanlovi o‘tkazildi. 2021 yil 5 mart kuni Filologiya fakulteti “Sanamlar sarvari” ko‘rik-tanlovi o‘tkazildi fevral mart oyi davomida barcha fakultetlarda “Qizlar davrasi” ko‘rik-tanlovi tashkil etilib, 12 mart kuni universitet bosqichi bo‘lib o‘tadi.

2021 yil 6 mart kuni “Sen aziz va muqaddassan, muqaddas ayol ” badiiy –musiqiy tadbir o‘tkazildi.

2. Huquqiy mavzuda olib borilgan ishlar 17 tani tashkil etgan

Talaba-yoshlarning Huquqiy mavzuda olib borilgan ishlari, davra suhbatlari 17 tani tashkil etdi. Unda asosan talabalarning huquqiy bilimni oshirish maqsadida diniy, milliy, zamonaviy dunyoqarashlarini aniqlash uchun so‘rovnomalar tashkil etilib, ushbu so‘rovnomalarning natijalariga asoslanib tadbirlar tashkil etilgan.

Huquqiy savodxonlikni oshirish uchun Viloyat Adliya boshqarmasi, Viloyat Prokuraturasi, IIB bilan hamkorlikda “Zararli g‘oyalarning jamiyatimizga ta‘siri”, “Ayol va din”, “Ayol va huquq” kabi mavzularda huquqiy-ma‘rifiy tadbirlar amalga oshirilgan.

Taniqli shoirlar, yozuvchilar, teatr jamoalari bilan uchrashuvlar tashkil etilib, bu tadbirlar talabalarning iqtidorini yanada yuksaltirish, bilim saviyasini boyitish uchun xizmat qiladi. Joriy yilning fevral oyida barcha fakultetlarda “Hayot – bu har kungi sinov”, “Fuqarolarning huquqlari,

erkinliklari va burchlari”, “Oilada ayolning o‘rni” mavzularida huquqshunoslar va dinshunos-mutaxassislar ishtirokida uchrashuvlar tashkil etilgan.

3. Sog‘lom turmush tarzi, tibbiy madaniyatni oshirish bo‘yicha o‘tkazilgan tadbirlar soni 48 tani tashkil etdi.

Universitetda sog‘lom turmush tarzi va tibbiy madaniyatni oshirish bo‘yicha talaba-qizlari o‘rtasida turli tadbirlar va sport to‘garaklari tashkil etilgan. Bunda stol tennisi, kurash, yengil atletika, volleybol, shaxmat-shashka singari qator to‘garaklar faoliyat ko‘rsatib kelayapti. Talaba-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash, bo‘sh vaqtlarini unumli o‘tkazish maqsadida “Mohir qo‘llar”, “Liboslar dizayni” “Tibbiyot madaniyati”, “Nutq madaniyati” to‘garaklari tashkil etilgan. Munozara Debat klubi, “Yoshlar markazi”, “Afandining jiyanlari” teatr jamoasi faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, har yili aprel-may oylarida talaba-qizlar mutaxassislar va “Ibn Sino salomatlik maskani” ma‘rifat markazi hamkorligida bepul tibbiy ko‘rikdan o‘tkazib borilgan. Ona va bola sog‘ligini muhofaza qilish, sog‘lom avlodni shakllantirish bo‘yicha talaba-qizlar o‘rtasida mutaxassislar bilan uchrashuvlar, davra suhbatlari tashkil etilgan. Jumladan: shu o‘quv yilida Skrining markazi, mutaxassis vrachlar, FHDYO xodimlari bilan bir qator tadbirlar o‘tkazilgan. Talabalar turar joyining Ma‘naviyat va ma‘rifat xonalarida “Bexatar onalik”, “Sog‘lom oila va barkamol farzandlar”, “Sog‘lom turmush tarziga amal qiling”, mavzularida davra suhbatlari tashkil etildi.

4. Iqtidor, bilim, kasbiy mahoratni oshirish bo‘yicha qilingan ishlar

Universitetda iqtidorli, bilimli, iste‘dodli talaba-qizlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Jumladan Respublika va viloyat miqyosida o‘tkazilayotgan barcha ko‘rik-tanlovlar va musobaqalarda faol ishtirok etib kelishmoqda. Masalan, Ziyodullayeva Aziza Prizident stependiatini, Xoliqova Nozima va Umarqulova Dinora “Zulfiya” nomidagi davlat mukofoti sovrindorlari bo‘lishdi. Bundan tashqari ko‘plab talaba-qizlar fanlar bo‘yicha Respublika olimpiadasi g‘oliblari bo‘lishdi.

Universitet xotin-qizlar maslahat kengashi Buxoro shahridagi 32-son “Mehribonlik uyi” va 27-son maktab-internat o‘quvchi tarbiyalanuvchilariga. Ayollar muruvvat uyiga doimiy ravishda xayr-saxovat ishlarini amalga oshirib kelmoqda. Shuningdek OAV da ham turli mavzularda chiqishlar qilishmoqda.

5. Odam savdosi muammolari bo‘yicha 28 ta tadbir tashkil etilgan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 8 iyuldagi PQ-911 sonli qarori ijrosini ta‘minlash bo‘yicha universitetda Odam savdosiga qarshi kurashishga qaratilgan maxsus hujjatlar jildi tashkil qilingan va yuritilgan. Ushbu qarorlar ijrosini ta‘minlash bo‘yicha rektoratning buyrug‘i va chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan.

Unga ko‘ra Odam savdosiga qarshi kurashish va uni oldini olish bo‘yicha 28 ta ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar amalga oshirilgan. Jumladan, “Odam savdosiga qarshi kurashishda birlashamiz!”, “Inson qadr-qimmatini va adolat barcha uchun”, “Inson shaxsi daxlsizdir”, “Odam savdosi – davr illati”, “Odam savdosi, chet el davlatlarida noqonuniy ishlashning salbiy oqibatlari va uni oldini olish choralarini” mavzularida davra suhbatlari, seminarlar o‘tkazilgan, Ushbu tadbirlarning deyarli barchasida viloyat IIB, Prokuratura, Sud organlarining vakillari o‘z ma‘ruzalari bilan ishtirok etganlar. “Odam savdosi - davr vabosi” mavzusida ochiq muloqot, “Ogoh bo‘ling- odam savdosi” mavzusida davra suhbatlari o‘tkazilib borilmoqda. Universitetning barcha fakultetlari, foye, asosiy kirib-chiqish eshiklari oldi, Axborot-resurs markazlari, talabalar turar joylarida odam savdosiga qarshi kurashish va uni oldini olishga qaratilgan ko‘rgazmali targ‘ibot vositalari, plakat va bukletlar osib qo‘yilgan.

Ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida universitet talabalaridan biror nafari odam savdosi qurboni bo‘lmaganligini ta‘kidlash o‘rinli.

6. Sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha 42 ta turli tadbir, davra suhbatlari hamda ochiq uuloqotlar tashkil etilgan.

Sogʻlom turmush tarzi va jismoniy madaniyatni shakllantirish maqsadida Viloyat sogʻliqni saqlash boshqarmasi va 3-son viloyat poliklinikasidan mutaxassislar jalb etilib “Qizim senga aytar gapim, bor”, “Dugonangga soʻzlab ber”, “Sogʻlom ona – sogʻlom bola” mavzularida barcha fakultetlarda muloqotlar, maslahatlar oʻtkazish yoʻlga qoʻyilgan. Malakali mutaxassis shifokorlar ishtirokida “Nikoh gigiyenasi”, “Nikoh huquqlari”, “Boʻlajak kelin-kuyovlarga maslahatlar”, “Qarindosh-urugʻlar oʻrtasidagi nikohning salbiy oqibatlarini”, “Tugʻma nasliy kasalliklar”, “OITS va uning profilaktikasi”, “Giyohvandlik va uning oqibatlarini” mavzularida suhbatlar, muloqot va uchrashuvlar tashkil etilgan. Respublika aholi reproduktiv salomatlik markazi tomonidan “Sogʻlom ona –sogʻlom avlod “ ,”Erta turmushga chiqishning salbiy oqibatlarini” “Qarindoshga qiz berma” mavzusida ochiq muloqotlar oʻtkazildi.

Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi, hamda boshqa yuqori tashkilotlardan, viloyat, shahar xotin-qizlar kengashlari tomonidan beriladigan topshiriqlar oʻz vaqtida bajarilib kelinmoqda. Seminarlar, ilmiy-anjumanlar, davra suhbatlari, tanlovlarda doimiy ravishda talaba-qizlar faol ishtirok etishmoqda.

TALABALAR SPORT KLUBI FAOLIYATI TOʻGʻRISIDA

Talaba sport klubi tomonidan 2021-2022 oʻquv yilida universitetda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Mazkur chora tadbirlar rejasiga muvofiq universitet talaba-yoshlari oʻrtasida sport turlari boʻyicha musobaqalar oʻtkazilib kelinmoqda. Talaba-yoshlarning boʻsh vaqtlarini mazmunli oʻtkazish maqsadida 22 ta toʻgarak faoliyat olib bormoqda. Jumladan, Yengil atletika, Futbol, Voleybol (oʻgʻillar), Voleybol (qizlar), Gandbol(oʻgʻillar) , Gandbol (qizlar) , Kurash, Dzyudo kurashi, Turon kurashi, Turon kurashi, Shashka, Tennis, Gimnastika, Armrestling, basketbol (oʻgʻil bolalar), basketbol (qiz bolalar) sport turlari boʻyicha toʻgaraklar bunga misol boʻladi. Mazkur toʻgaraklarga 2500 nafar talaba jalb qilingan.

Jumladan:

2021 yil 27-29 sentabr kunlari 1-Oktabr “oʻqituvchi va murabbiylar” kuni munosabati bilan BuxDU professor-oʻqituvchilari oʻrtasida “Doʻstlik”spartakiadasi musobaqalari boʻlib oʻtdi. Professor oʻqituvchilar Badminton, Shaxmat, Shashka, Stol tennisi, Voleybol sport turlari boʻyicha oʻzaro kuch sinashdilar. Musobaqalarda quyidagi natijalar qayd qilindi.

Ushbu musobaqaning badminton turi boʻyicha musobaqalarda 1-oʻrin. Maxmudov Maqsud. Jismoniy madaniyat fakulteti oʻqituvchisi. 2-oʻrin. Akramov Begzod. Xorijiy tillar fakulteti oʻqituvchisi. 3-oʻrin. Oripov Maxmud. Iqtisodiyot va turizm fakulteti oʻqituvchisi egalladilar. 27.09.2021 yil “Badminton” sport turi (ayollar) oʻrtasida musobaqasida 1-oʻrin. Gafurova Moxira. Jismoniy madaniyat fakulteti oʻqituvchisi. 2-oʻrin. Abdueva Sitara. Jismoniy madaniyat fakulteti oʻqituvchisi. 3-oʻrin. Fattullayeva Muazzam. Jismoniy madaniyat fakulteti oʻqituvchisi egallashdilar.

1-Oktabr “oʻqituvchi va murabbiylar” kuni munosabati bilan 27.09.21 da BuxDU professor-oʻqituvchilari oʻrtasida “Doʻstlik”spartakiadasi musobaqalarining Badminton musobaqasida 1-oʻrin Gafurova Moxira. Jismoniy madaniyat fakulteti 2-oʻrin Abdueva Sitara. Jismoniy madaniyat fakulteti. 3-oʻrin. Fattulloyeva Muazzam. Jismoniy madaniyat fakulteti jamoalari azolari egallashdilar. 1-Oktabr “oʻqituvchi va murabbiylar” kuni munosabati bilan 27.09.21 da BuxDU professor-oʻqituvchilari oʻrtasida “Doʻstlik”spartakiadasi musobaqalarining Stol tennisi musobaqasida 1-oʻrin. Narzullayev Farrux. Jismoniy madaniyat fakulteti jamoa azosi 2-oʻrin. Raxmonov Rauf. Jismoniy madaniyat fakulteti jamoa si azosi 3-oʻrin. Jamolov E. Agronomiya fakulteti jamoasi azolari egalladilar. 1- Oktabr “oʻqituvchi va murabbiylar” kuni munosabati bilan 27.09.21 da BuxDU professor-oʻqituvchilari oʻrtasida “Doʻstlik”spartakiadasi musobaqalarining Stol tennisi ayollar musobaqasida 1-oʻrin. Abdueva Sitara. Jismoniy madaniyat fakulteti oʻqituvchisi 2-oʻrin. Xaydarova N. Tabiiy fanlar fakulteti oʻqituvchisi 3-oʻrin. Oʻroqova S. Jismoniy madaniyat fakulteti oʻqituvchisi egallashdilar. 1-Oktabr “oʻqituvchi va murabbiylar” kuni munosabati bilan 29.09.21 da BuxDU professor-oʻqituvchilari oʻrtasida “Doʻstlik”spartakiadasi musobaqalarining Shashka erkaklar oʻrtasidagi musobaqalarida 1-oʻrin. Oʻroqova S. Jismoniy madaniyat fakulteti oʻqituvchisi 2-oʻrin. Xojiyeva G. Xorijiy tillar fakulteti

o'qituvchisi 3-o'rin. Adizova O. Xorijiy tillar fakulteti o'qituvchilari egallashdilar. 1-Oktabr "o'qituvchi va murabbiylar" kuni munosabati bilan 29.09.21 da BuxDU professor-o'qituvchilari o'rtasida "Do'stlik" spartakiadasi musobaqalarining Stol tennisi erkaklar musobaqasida 1-o'rinni Davronov N. Jismoniy madaniyat fakulteti o'qituvchisi 2-o'rinni Abdullayev SH. Jismoniy madaniyat fakulteti o'qituvchisi 3-o'rinni Boboyev Samandar. Axborot texnologiyalari fakulteti o'qituvchisi egallashdilar.

1-Oktabr "o'qituvchi va murabbiylar" kuni munosabati bilan 29.09.21 da BuxDU professor-o'qituvchilari o'rtasida "Do'stlik" spartakiadasi musobaqalarining Shaxmat ayollar musobaqasida 1-o'rinni Boboyev S. Axborot texnologiyalari fakulteti o'qituvchisi 2-o'rinni Ro'ziyev N. Filologiya fakulteti o'qituvchisi. 3-o'rinni Yuldashov Feruz. Iqtisodiyot va turizm fakulteti o'qituvchilari egallashdilar. 1-Oktabr "o'qituvchi va murabbiylar" kuni munosabati bilan 29.09.21 da BuxDU professor-o'qituvchilari o'rtasida "Do'stlik" spartakiadasi musobaqalarining erkaklar o'rtasida bo'lib o'tgan voleybol musobaqasida 1-o'rinni Jismoniy madaniyat fakulteti jamoasi. 2-o'rinni Iqtisodiyot va turizm fakulteti jamoasi. 3-o'rinni Tarix va madaniy meros fakulteti jamoalari egallashdilar. 2021 yil 2-31 noyabr kunlari BuxDU talabalari o'rtasida 1-kurslar Spartakiadasi o'tkazilayapti. Talabalar Yengil atletika, Voleybol, Ganbol, Stol tennisi, Shaxmat, Shashka, Kurash, Mini futbol, Basketbol, sport turlari bo'yicha o'zaro kuch sinashdilar. Musobaqalarda quyidagi natijalar qayd qilindi. 02.11.2021 yil "Yengil atletika" sport turi musobaqasi 100 metr ga yugurish qizlar, 1-o'rin. Yaxshimurodova Aziza. Jismoniy madaniyat fakulteti talabasi. 2-o'rin. Akramova Shaxlo. Biotexnologiya fakulteti talabasi. 3-Tojiyeva Marjona. Filologiya fayeulteti talabasi egallashdilar. 100 metr ga yugurish qiz bolalar o'rtasidagi baxslarda 1-o'rin. Maxmudov Javoxir. Jismoniy madaniyat fakulteti talabasi. 2-o'rin. Tursunov Dilmurod. Biotexnologiya fakulteti talabasi. 3-o'rin. Toxirjonov Jaloliddin. Iqtisodiyot va turizm fakulteti talabalari egallashdilar.

800 metr ga yugurish o'g'il bolalar o'rtasidagi musobaqalarda 1-o'rin. Chorriyev Samandar. Jismoniy madaniyat fakulteti talabasi. 2-o'rin. Toshpo'latov Rustam. Axborot texnologiyalari fakulteti talabasi. 3-o'rin. Sayfullayev Muxriddin. Sanatshunoslik fakulteti talabasi egallashdilar. Umumiy o'rin. 1-o'rin. Jismoniy madaniyat fakulteti jamoasi. 2-o'rin. Agronomiya va Biotexnologiya fakulteti jamoasi. 3-o'rin. Filologiya fakulteti jamoalari egallashdilar.

2021 yil 3-noyabr kuni BuxDU talabalari o'rtasida 1-kurslar Spartakiadasi musobaqalarining voleybol sport turi o'g'il bolalar baxslarida 1-o'rin. Jismoniy madaniyat fakulteti jamoasi. 2-o'rin. Tabiiy fanlar fakulteti jamoasi. 3-o'rin. Fizika Matematika fakulteti jamoalari egallashdilar. 2021 yil 4-noyabr kuni BuxDU talabalari o'rtasida 1-kurslar Spartakiadasi musobaqalarining voleybol sport turi qiz bolalar o'rtasidagi baxslarida 1-o'rin. Jismoniy madaniyat fakulteti jamoasi. 2-o'rin. Sanatshunoslik fakulteti jamoasi 3-o'rin. Filologiya va tillarni o'qitish fakulteti jamoalari egallashdilar. 2021 yil 8-noyabr kuni BuxDU talabalari o'rtasida 1-kurslar Spartakiadasi musobaqalarining ganbol sport turi qiz bolalar o'rtasidagi baxslarida 1-o'rin. Agronomiya va Biotexnologiya fakulteti jamoasi talaba qizlari. 2-o'rin. Sanatshunoslik fakulteti jamoasi. 3-o'rin. Jismoniy madaniyat fakulteti jamoasi talaba yoshlari egallashdilar. 2021 yil 19-25 noyabr kuni BuxDU talabalari o'rtasida 1-kurslar Spartakiadasi musobaqalarining mini futbol sport turi o'g'il bolalar o'rtasidagi baxslarida 1-o'rin. Jismoniy madaniyat fakulteti jamoasi. 2-o'rin. Xorijiy tillar fakulteti jamoasi. 3-o'rin. Agronomiya va Biotexnologiya fakulteti jamoalari egallashdilar. 2021 yil 26-30 noyabr kuni BuxDU talabalari o'rtasida 1-kurslar Spartakiadasi musobaqalarining basketbol sport turi o'g'il bolalar o'rtasidagi baxslarida 1-o'rin. Jismoniy madaniyat fakulteti jamoasi. 2-o'rinni Fizika Matematika fakulteti jamoasi. 3-o'rin. Iqtisodiyot va turizm fakulteti jamoasi egallashdilar. 2021 yil 29-30 noyabr kuni BuxDU talabalari o'rtasida 1-kurslar Spartakiadasi musobaqalarining basketbol sport turi qiz bolalar o'rtasidagi baxslarida

1-o'rin. Jismoniy madaniyat fakulteti jamoasi. 2-o'rin. Filologiya va tillarni o'qitish fakulteti jamoasi. 3-o'rin. Agronomiya va Biotexnologiya fakulteti jamoalari egallashdilar.

Sportning voleybol turi bo'yicha 2021 yil 9-15 dekabr kunlar Qoraqolpog'iston Respublikasi Nukus shaxrida ayollar o'rtasida XXVIII O'zbekiston kubogi musobaqarai bo'lib o'tdi ushbu nufuzli musobaqada universitetimiz qiz bolalaridan tashkil topgan BuxDU jamoasi ishtirok etib uchinchi o'rinni egallashdilar.

12.01.2022 yil 14-yanvar vatan ximoyachilari kunga bag'ishlab professor o'qituvchilari o'rtasida sport musobaqalarining stol tenni, badminton baxslari o'tkazildi musobaqada bosh xakam etib Raxmonov R. Do'stov.B tayinlardilar.

13.01.2022 yil 14-yanvar vatan ximoyachilari kunga bag'ishlab professor o'qituvchilari o'rtasida sportning shaxmat shashka musobaqalari baxslari o'tkazildi. 14.01.2022 yil 14-yanvar vatan ximoyachilari kunga bag'ishlab professor o'qituvchilari o'rtasida sportning voleybol musobaqalari baxslari o'tkazildi. Ushbu baxslarda 1-o'rinni Jismoniy madaniyat jamoasi, 2-o'rinni Xorijiy tillar jamoasi, 3-o'rinni Axborot texnologiyalari jamoalari egallashdilar. 18-22.01.2022 yil 14-yanvar vatan ximoyachilari kunga bag'ishlab professor o'qituvchilari o'rtasida sportning mini futbol musobaqalari baxslari o'tkazildi. Musobaqada 1-o'rinni Jismoniy madaniyat jamoasi, 2-o'rinni Tarix va madaniy meros fakulteti jamoasi, 3-o'rinni Iqtisodiyot va turizm jamoalari egallashdilar. 17.01.2022 yil 14-yanvar vatan ximoyachilari kunga bag'ishlab professor o'qituvchilari o'rtasida sportning basketbol musobaqalari baxslari o'tkazildi. Musobaqada 1-o'rin Jismoniy madaniyat fakulteti jamoasiga, 2-o'rin Axborot texnologiyalari jamoasiga 3-o'rin esa Iqtisodiyot va turizm fakulteti jamoasi professor o'qituvchilari egallashdilar.

Takliflar:

Talabalarning taklif va istaklarini inobatga olgan holda to'garaklar faoliyatini shakllantirish hamda ushbu to'garaklarga talabalarni keng jalb etishga erishish;

Pandemiya munosabati bilan sog'lom turmush tarzi birinchi o'rinda ekanligini inobatga olib, Talaba sport klubi bu borada yetakchi bo'lishini ta'minlash;

Sport turlari bo'yicha musobaqalar va to'garaklar tashkil etish istagini bidirgan talabalarni qo'llab-quvvatlash va hamda ularga ko'maklashish;

2022 yil – Yoshlar bilan ishlash hamda aholi salomatligini mustahkamlash yili munosabati bilan Talaba sport klubi tomonidan doimiy o'tkaziladigan sport tadbirlaridan fvrqli ravishda yoshlarni ommaviy jalb etish borasida loyihalari bilan tashabbus ko'rsatishi.

To'garaklarga jalb etilgan talabalar qamrovi kamligini inobatga olib, fakultetlarda ham to'garaklar faoliyatini tashkil etish hamda talabalar qamrovini yanada oshirish.

Kun tartibidagi masala yuzasidan Kengash qaror qiladi:

1. Yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor A.Kadirovning universitetda jamoat tashkilotlarining (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ittifoqi BuxDU boshlang'ich tashkiloti, Xotin-qizlar qo'mitasi maslahat kengashi, xodimlar kasaba uyushmasi, talaba sport klubi) faoliyati, amalga oshirilgan ishlari to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Jamoat tashkilotlari tomonidan talabalarning darsdan keyingi bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, dam olishini tashkil qilishga alohida e'tibor qaratsin (Mas'ul: Jamoat tashkilotlari rahbarlari).

3. Universitetda tahsil olayotgan ota-onasiz, otasi yoki onasi yo'q, ijtimoiy himoyaga muhtoj, kam ta'minlangan, nogiron talabalar va pedagog-xodimlarni ijtimoiy himoya qilish ustivor vazifa sifatida belgilansin.

4. Jamoat tagshkilotlarining tadbirlarni o'tkazishda davlat organlari va nodavlat jamoat tashkilotlari bilan hamkorligi kuchaytirilsin (Mas'ul: A.Kadirov, jamoat tashkilotlari rahbarlari, dekanlar, dekan o'rinbosarlari).

5. Ushbu qaror bajarilishini nazorat qilish Yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor A.Kadirov zimmasiga yuklatilsin.

V. Xalqaro hamkorlik bo'yicha:

5. Qo'shma ta'lim dasturlariga qabulni natijalari haqida

ESHITILDI: O.R.Hamidov (Qo'shma dasturlar bo'limi бошлиғи) 2021/2022 o'quv yilida qo'shma dasturlarning 3 ta bakalavr (KFU bilan hamkorlikdagi Iqtisodiyot, HIT bilan hamkorlikdagi Informatika va axborot texnologiyalari, hamda Amaliy matematika) 7 ta magistratura (KFU bilan hamkorlikdagi Iqtisodiyot, Inson resurslarini boshqarish, Lingvisika: Rus tili, Geografiya, MMFI bilan hamkorlikdagi Iqtisodiy xavfsizlik, Gunadarma bilan hamkorlikdagi Raqamli turizm, Sofiya universiteti bilan hamkorlikdagi Xorijiy til va adabiyot: Ingliz tili)dasturiga jami 190 kvota ajratildi. Ushbu dasturarga 96 nafar bakalavr va 107 nafar magistratura yo'nalishlari uchun abituriyentlar hujjat topshirdi. Shundan, 60 nafari (27 ta bakalavriat, 43 ta magistratura) 2 bosqichli imtihonlarda saralab olinib talabalikka tavsiya etildi.

Qo'shma dasturlarga imtihonlar ikki bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqich hamkor OTM tomonidan, birinchi bosqichdan saralab olingan abituriyentlar ikkinchi bosqich Davlat test markazi tomonidan olingan xorijiy til bo'yicha test jarayonlariga kiritildi.

Bundan tashqari Fransiyaning Vatel oliy maktabi fransizasi asosida Menejment (Mehmonxona boshqaruvi) bakalavriat dasturiga 12 nafar abituriyentlar talabalikka tavsiya etildi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. Qo'shma ta'lim dastur bo'limi boshlig'i O.H. Raximov hisoboti ijro uchun qabul qilinsin.
2. Qabul parametrlari belgilash ko'rsatkichlarga etmaganligi ta'kidlab o'tilsin.
3. Kelgusi yilda qabul tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilsin.
4. Yangi qabul qilingan talabalarga qo'shma dasturlarga o'qish uchun til kurslari tashkil etilsin.

VI. Monitoring va ichki nazorat bo'limi

4. 2021-yilda Buxoro davlat universiteti bo'limlari va fakultetlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Hayat qarorlari va buyruqlari, rektor buyruqlari va topshiriqlarining ijro holati to'g'risida

ESHITILDI: A.A. Qilichev (Monitoring va ichki nazorat bo'limi boshlig'i) 2021-yilda Buxoro davlat universiteti bo'limlari va fakultetlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Hayat qarorlari va buyruqlari, rektor buyruqlari va topshiriqlarining ijro holati

№	Ijrochi	Kelib tushgan xat	Ish jarayonida	Bajarilgan	Muddati o'tgan	Muddati o'tib bajarilgan	O'qilgan topshiriqlar	Barcha
1	R.G'.JUMAYEV	1428	9 (0.6%)	1345 (94.2%)	1 (0.1%)	100 (7.0%)	0	1421
2	X.A.QAZOQQOVA	5	0	4 (80.0%)	0	0	0	5
3	O.X.XAMIDOV	1	0	0	0	1 (100.0%)	0	1
4	N.X.RAJABOV	94	0	61 (64.9%)	0	31 (33.0%)	0	86
5	A.T.JO'RAYEV	248	0	194 (78.2%)	0	57 (23.0%)	0	246
6	J.R.JO'RAYEV	103	0	94 (91.3%)	2 (1.9%)	12 (11.7%)	0	92
7	H.T.ARTIQOVA	78	0	76 (97.4%)	0	12 (15.4%)	0	70
8	M.M.JO'RAYEV A	97	0	60 (61.9%)	6 (6.2%)	30 (30.9%)	0	89

9	U.A.FAYZIYEVA	563	1 (0.2%)	562 (99.8%)	0	0	0	562
10	O.S.QAHHOROV	563	6 (1.1%)	533 (94.7%)	3 (0.5%)	27 (4.8%)	2 (0.4%)	560
11	A.A.KILICHEV	47	0	40 (85.1%)	0	8 (17.0%)	0	47
12	Q.R.TO'XSANOV	51	0	37 (72.5%)	0	12 (23.5%)	0	51
13	H.O.JO'RAYEV	71	0	55 (77.5%)	1 (1.4%)	17 (23.9%)	0	63
14	D.SH.YAVMUTO V	84	0	66 (78.6%)	3 (3.6%)	18 (21.4%)	0	76
15	SH.SH.MAMEDO V	104	2 (1.9%)	81 (77.9%)	1 (1.0%)	24 (23.1%)	0	102
16	A.M.KADIROV	419	1 (0.2%)	402 (95.9%)	0	25 (6.0%)	0	416
17	H.I.ESHANKULO V	75	0	56 (74.7%)	2 (2.7%)	20 (26.7%)	0	67
18	T.R.SOBIROV	20	0	10 (50.0%)	1 (5.0%)	7 (35.0%)	5 (25.0%)	20
19	O'.U.RASHIDOV	2046	78 (3.8%)	1220 (59.6%)	1 (0.0%)	735 (35.9%)	54 (2.6%)	2037
20	E.D.NIYOZOV	62	0	53 (85.5%)	1 (1.6%)	14 (22.6%)	0	54
21	M.Y.ERGASHOV	29	0	16 (55.2%)	2 (6.9%)	9 (31.0%)	0	29
22	B.B.MA'MUROV	135	0	73 (54.1%)	16 (11.9%)	38 (28.1%)	36 (26.7%)	127
23	A.T.BABOYEV	50	0	39 (78.0%)	1 (2.0%)	11 (22.0%)	0	42
24	S.K.HAMIDOV	45	0	42 (93.3%)	0	3 (6.7%)	0	44
25	Y.K.QULIYEV	11	0	10 (90.9%)	0	2 (18.2%)	0	11
26	S.S.AZIMOV	54	0	41 (75.9%)	2 (3.7%)	12 (22.2%)	21 (38.9%)	47
27	O.H.RAHIMOV	41	0	18 (43.9%)	2 (4.9%)	18 (43.9%)	0	40
28	D.Z.RAJABOV	87	0	70 (80.5%)	0	24 (27.6%)	6 (6.9%)	79

Buxoro davlat universitetiga 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida kelib tushgan murojaatlar to'g'risida MA'LUMOT														
№	Jami idoraga kelib tushgan murojaatlar soni	Virtual qabulxona orqali kelgan murojaatlar soni	Shundan				Rahbar tomonidan qabul qilingan shaxslar soni	Rahbar o'rinbosar-lari tomonidan qabul qilingan shaxslar soni	Shundan			Idora (idoralarning viloyat, tuman hududiy bo'linmalari va tuman hokimlari) hududiy tuzilmalari rahbarlari tomonidan		
			Og'zaki	Yozma	vab-sayt	elektron pochta			Bevosita idorada qabul qilingan shaxslar soni	Sayyor qabullarda qabul qilingan shaxslar soni	Xalq qabulxona-larida qabul qilingan shaxslar soni	Bevosita idorada qabul qilingan shaxslar soni	Sayyor qabullarda qabul qilingan shaxslar soni	Xalq qabulxona-larida qabul qilingan shaxslar soni
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
	422	121	287	6	8	0	73	214	287	0	0	0	0	0

2. Universitetda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarining 2021-yil tahlili to'g'risida

ESHITILDI: A.A. Qilichev (Monitoring va ichki nazorat bo'limi boshlig'i) **Buxoro davlat universitetiga 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida kelib tushgan murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari to'g'risida ma'lumot berdi.**

MA'LUMOT

Bevosita idoraga kelgan murojaatlar bo'yicha							Virtual qabulxona orqali kelib tushgan murojaatlar bo'yicha						
Jami*	Qanoatlantirilgan	Tushuntirish berilgan	Ko'rmadan qoldirilgan	Rad etilgan	Tegishliligi bo'yicha boshqa tashkilotga yuborilgan	O'rganish jarayonida	Jami	Qanoatlantirilgan	Tushuntirish berilgan	Ko'rmadan qoldirilgan	Rad etilgan	Tegishliligi bo'yicha boshqa tashkilotga yuborilgan	O'rganish jarayonida
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
301	94	207	0	0	0	0	121	26	86	0	7	0	2

Buxoro davlat universitetiga joriy yilning o'tgan yanvar-dekabr oylarida jami 422 ta murojaat kelib tushgan. Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali 121 ta, og'zaki 287 ta, yozma shaklda 6 ta, veb-sayt orqali 8 ta murojaat qabul qilingan. Bevosita universitet rektori tomonidan 73 nafar fuqaro, prorektorlar tomonidan 214 nafar fuqaro, jami 287 kishi bevosita universitetda qabul qilingan. Universitetga kelib tushgan og'zaki murojaatlardan 90 tasi qanoatlantirilgan, 197 tasi bo'yicha huquqiy tushuntirish berilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali kelib tushgan jami 121 ta murojaatdan 26 tasi qanoatlantirilgan, 86 tasi bo'yicha tushuntirish berilgan, 7 tasi rad etilgan. Ayni paytda 2 ta murojaat ko'rib chiqish jarayonida (**ma'lumotlar qabul qilinadi**).

Buxoro davlat universitetiga murojaatlarning aksariyati o'qishni ko'chirish, magistraturaga qo'shimcha qabul, shartnoma to'lovini to'lashning yangi tartibi bo'yicha kelib tushgan. Muammolarning kelib chiqish sababi - talabalar va ularning ota-onalarida masalaga oid ma'lumotning yetarli emasligi va fuqarolarga dastlabki huquqiy tushuntirishlar to'liq taqdim etilmaganligidan iboratdir. Mazkur muammolarni hal etish maqsadida shartnoma to'lovi shartlari bo'yicha ma'lumotlar banner shaklida tayyorlandi, universitet Telegramm kanali orqali tezkor axborotlarni berib borish yo'lga qo'yildi. O'tgan davr mobaynida murojaatlar bilan ishlashni takomillashtirishga qaratilgan 3ta o'quv tashkil etildi. Yuqoridagilar bilan bir qatorda 2021 yilda universitetga 23ta Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Hay'at qarori, 204 ta buyrug'i kelib tushgan. Ijro holati monitoringi ilova qilinmoqda.

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. 2021-yilda Buxoro davlat universiteti bo'limlari va fakultetlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Hayat qarorlari va buyruqlari, rektor buyruqlari va topshiriqlarining ijro holati tўғрисида Жисмоний ва юридик шахсларнинг murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i A.Qilichevning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinсин.

2. 2021-yilda Buxoro davlat universiteti bo‘limlari va fakultetlarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi Hayat qarorlari va buyruqlari, rektor buyruqlari va topshiriqlarining ijro holati **qoniqarli deb hisoblansin.**

3. 2022 йилда ‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi Hayat qarorlari va buyruqlari, rektor buyruqlari va topshiriqlarining ijro **nazoratini ta‘minlash bo‘yicha ishlar tizimli ravishda olib borilsin. (Ma’sul barcha prorektorlar , A. Qilichev).**

VII. Tanlovlar.

7.1. Kafedra mudiri, professori, dotsenti, katta o‘qituvchi va o‘qituvchi (asistent) lavozimlariga navbatdagi tanlovlar to‘g‘risida

ESHITILDI: N.G.Dilova (Kengash kotibi) - Bugungi kengashda belgilangan tartib asosida 62 nafar professor o‘qituvchilarning ish hujjatlari o‘rganilib, tegishli kafedra bayonnomalari qarorlari asosida 31 nafar talabgorlar tanlovdan o‘tishga tavsiya etildi. Ularning ro‘yxati jadvalda keltirilgan:

Buxoro davlat universiteti				
2021-2022 o‘quv yili 6- Kengash				
Tanlovda ishtirok etayotgan professor-o‘qituvchilar ro‘yxati 31.01 .2022y.				
1	Tuproqshunoslik kafedrasini mudiri lavozimiga	Nazarova Sevara Mustaqimovna	Buxoronoma 1dekabr №95	Tuproqshunoslik kafedrasini mudiri
		Asadov Saydiqul Raximberdiyevich		Buxoro Irri va qish.xo‘j. Mex Yer tuzish va yerda foydalanish kafedrasida katta o‘qituvchisi
2	Axborot texnologiyalari kafedrasini mudiri lavozimiga	Shafiyev Tursun Rustamovich	Buxoronoma 1dekabr №93	Axborot texnologiyalari kafedrasini mudiri (v.b)
		Saidova Nazokat Sayfullayevna		Axborot texnologiyalari kafedrasini dotsenti
3	Texnologik talim kafedrasini mudiri lavozimiga	Murtazoyev Azizbek Nusrat o‘gli	Buxoronoma 24noyabr №93	Texnologik talim kafedrasini mudiri
		Sayfullayevna Dilafro‘z Axmadovna		Texnologik ta‘lim kafedrasini dotsenti
-4	Fizika kafedrasini professori lavozimiga	Jo‘rayev Turob Doniyorovich	Buxarskiy vesnik 20-dekabr №101	Fizika kafedrasini dotsenti
		Boltayev San‘at Axmedovich		Buxoro tabiiy resuslarni boshqa rish instituti “Matematika va tabiiy” kafedrasini mudiri
5	Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasini professori lavozimiga	Arslonov Qahramon Polvonovich	Buxarskiy vesnik 20-dekabr №94	Jismoniy madaniyat va uslubiyoti kafedrasini dotsenti
		Ibragimov Alisher Karomatovich		Fakultetlararo jis.mad. va sport kafedrasini dotsenti
6	Organik va fizkolloid kimyo kafedrasini professor lavozimiga	TursunovMurodov Amonovich	Buxoronoma 20dekabr №93	Organik va fizologik kafedrasini dotsenti
		Husenov Qahramon Shayimovich		Navoiy davlat konchilik institute kimyoviy texnologiya kafedrasini dotsenti
7	Maktabgacha ta‘lim kafedrasini dotsent lavozimiga	Nigmatova Mavluda Maxmudovna	Buxarskiy vesnik 20dekabr №94	Maktabgacha ta‘lim kafedrasini katta o‘qituvchisi
		Hakimova Mexriniso Xamitovna		Boshlang‘ich ta‘limmetodikasi kafedrasini katta o‘qituvchisi

8	Tuproqshunoslik kafedrası dotsent lavozimiga	Sharipov Odiljon Bafoyevich	Buxarskiy vesnik 23.11.2021 №94	Tuproqshunoslik kafedrası katta o'qituvchisi
		Fayziyeva Flora Abdullayevna		Ekologiya va geografiya kafedrası katta o'qituvchisi
9	Pedagogika kafedrası dotsent lavozimiga	Musayeva Nodira Nizomovna	Buxoronoma 4-dekabr №96	Pedagogika kafedrası dotsenti
